

## ABDULLA ORIPOV IJODIDA XALQ IBORALARINING QO‘LLANILISHI

Laziza Orifova

O‘zMU magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri abdulla Oripovning oddiy folklorizm hisoblangan xalq iboralaridan foydalanish mahorati yoritilgan. Shoir she’rlarida qo‘llangan ba’zi xalq iboralarining ohang, vazn, qofiya talabi bilan o‘zgarishga uchrashi tahlillar yordamida ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Oripov, oddiy folklorizm, xalq iboralari, lirika, qofiya, vazn.

**Аннотация:** В данной статье описывается мастерство народного поэта Узбекистана Абдуллы Орипова в использовании народных словосочетаний, которые считаются простым фольклоризмом. С помощью анализа выявляется изменение некоторых народных словосочетаний, употребляемых в стихах поэта, требованиями тона, тяжести, рифмы.

**Ключевые слова:** Абдулла Орипов, простой фольклоризм, народные поговорки, лирика, рифма, вес.

**Annotation:** This article describes the skill of the folk poet of Uzbekistan, Abdulla Oripov, in using folk phrases that are considered simple folklorism. The change of some folk phrases used in the poet's poems with the demands of tone, weight, and rhyme is revealed with the help of analysis.

**Key words:** Abdulla Oripov, simple folklorism, folk sayings, lyrics, rhyme, weight.

Yozma adabiyot paydo bo‘lib, individual ijodkorlar tomonidan asarlar yaratilgan Qadim vaqtlardan buyon yozuvchi va shoirlar o‘z asarlarini kitobxonga aniqroq yetkazib berish, asar mazmuni, g‘oyasini ochib berish, anglatish yo boshqa maqsadlarda insonlar kundalik so‘zlashuvda foydalanadigan yoki duch keladigan xalq donishmandligining mahsuli bo‘lgan folklor namunalaridan foydalanib kelganlar. Ana shunday folklor namunalarining ijodkorlar poetik maqsadini aks ettirish uchun O‘zgarishsiz yoki o‘zgarishga uchragan holda yozma adabiyotga olib kirilishi folklorizmlar sanaladi. Folklorizmlarning oddiy va murakkab turlari mavjud



bo‘lib, mazkur maqolada biz oddiy folklorizm hisoblangan xalq iboralariga e‘tibor qaratamiz.

Oddiy folklorizmlarga xalq maqollari bilan bir qatorda xalq olqish va qarq‘ishlari, og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan xalq iboralari ham kiritiladi.

Olima Laylo Sharipova “XX asrning 70-80- yillari o‘zbek she‘riyatida folklorizmlar” nomli dissertatsiyasida og‘zaki nutqqa xos ifoda oddiy oborotlarni folklorizmlarga kiritmaydi. Olimaning fikriga ko‘ra, ular tilga, nutqqa xos hodisa bo‘lib, badiiy ijod mahsuli sanalmaydi. Ammo til va nutq hodisasi shaklan qayta ishlanmasa ham yangi bir poetik kashfiyotni yuzaga chiqarishda qo‘llansa, folklorizmga aylanadi.<sup>1</sup>

O‘zbek xalqining buyuk shoiri Abdulla Oripov ham ijodida xalq iboralaridan mohirlik bilan foydalangan. Xalq iboralarini she‘rlari tarkibiga singdirib yuborib, ularga yangi poetik ma‘no yuklagan va she‘rlarining xalqchilligini ta‘minlagan.

Shoirning xalq iboralariga munosabatini quyida keltirilgan yosh shoirlarning she‘rlariga bildirgan mulohazalaridan ham anglash mumkin: “Bir guruh yoshlar adabiyotga gurullab kirayotirlar. Ularning izlanishlaridan, yutuqlaridan quvonaman. Ammo ular ijodida sun‘iylik va so‘zga e‘tiborsizlikni ko‘p uchrataman. Quruq baqiriqlarning, shaldir-shuldir gaplarning kimga kerakligi bor? Shuningdek, she‘rni krassvordga ham aylantirmaslik kerak. Mayakovskiy ko‘pchilik tushunadigan so‘zlarni, o‘zi aytganidek, oddiy suhbat tilini she‘riyatga olib kirdi. Bir so‘z she‘r uchun chiroyli bo‘lishi mumkin. Lekin xalk uchun-chi? Xalk iboralarini she‘rda yashab qolishi kerak-ku?”<sup>2</sup>

Abdulla Oripovning yosh shoirlarning she‘rlariga qo‘ygan talablarining natijasi o‘z she‘rlarida ham aks etgan. Ya‘ni shoir boshqalarga qo‘ygan talablariga avvalo o‘zi amal qilgan. Masalan, birgina “ko‘z tikmoq” ko‘p ma‘noli iborasi shoir she‘rlarida turli shaklda qo‘llangan. “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” da tikilib qaramoq<sup>3</sup> ma‘nosini bildirgan bu ibora quyidagi she‘riy parchada vazn talabi bilan o‘zgartirilib, jonsiz narsalarga nisbatan qo‘llanib, jonlantirish san‘atini yuzaga keltirgan.

Mol-dunyo degani dilni yupatmas,

<sup>1</sup> Ш.Назарова. Огаҳий ижодига янгича бир назар. ЎзМУ босмахонаси, 2010. – В. 18.

<sup>2</sup> Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. – В. 119.

<sup>3</sup> O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Tuzuvchilar: SH.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – В. 257.



Suq, hasad doimo ko‘zin tikkaydir.<sup>4</sup>

Quyidagi parchada esa ibora qofiya talabi bilan teskari qo‘llangan:

Ta‘mirlasang Ka‘bani hatto,

Ko‘rmaganga olarlar o‘zni.

Fazilating payqashmas aslo,

Nuqsoningga tikarlar ko‘zni.<sup>5</sup>

Bu ibora ko‘p ma‘noli ibora bo‘lib, lug‘atdagi umidvor bo‘lib qaramoq<sup>6</sup> ma‘nosi ham shoir ijodida ko‘p uchraydi.

Xazon kezganida kuzgi bog‘ingda,

Sening kamolingga ko‘z tikkan otang.<sup>7</sup>

Yuqoridagi parchada ibora o‘zgarishsiz qo‘llangan bo‘lsa, Erkin Vohidovga bag‘ishlangan quyidagi she‘rda esa qofiya talabi bilan o‘zgarishga uchragan:

Biz ham yuksaklarga tikkandik ko‘zni,

Bizda ham bor edi matonat, bardosh.

Arslon chorlagandi qoshiga bizni,

Lekin qumursqalar bo‘ldi safardosh.<sup>8</sup>

Xuddi shu ibora quyidagi she‘rda qofiya talabi bilan o‘zgarishga uchragan va she‘r mazmunini ochib berish uchun bo‘lishsiz shaklda qo‘llangan:

Agar sen qiblagga burmasang yuzni,

Besh mahal sajdayu namozing bekor.

Jannatga hech qachon tikmagil ko‘zni,

Agar bir mo‘minga yetkangsang ozor.<sup>9</sup>

Ya‘ni, she‘riy parchada mo‘minga ozor berish katta gunoh ekani, dilozorlikdan ehtiyot bo‘lish kerakligi mantiqli fikrlar bilan uqtiriladi.

Lug‘atda kibrlanish, havolanish oqibatida nazarga ilmaslik holatini ifoda etuvchi ko‘zini yog‘ bosmoq<sup>10</sup> iborasi “Turg‘un va terak” she‘rida katta yo‘l

<sup>4</sup> A.Oripov. Quysh bekatlari. – T.: Sharq, 2010. – B. 29.

<sup>5</sup> A.Oripov. Tanlangan asarlar. 8-jild – Toshkent: Faqur Fulom, 2016.

<sup>6</sup> O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Tuzuvchilar: SH.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 257.

<sup>7</sup> A.Oripov. Quysh bekatlari. – T.: Sharq, 2010. – B. 136.

<sup>8</sup> A.Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 2-jild – T.: Adabiyot va san‘at, 2001. – B. 27.

<sup>9</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 214.

<sup>10</sup> O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Tuzuvchilar: SH.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 12.



yoqasidagi teraklarni beayov kesib sotayotgan Turg'un ismli fermerga nasihat tarzida bo'lishsiz shaklda qo'llanadi:

Biroq, ukam ko'zlarini yog' bosmasin,  
Nafsing bir kun oyog'ingdan naq osmasin.<sup>11</sup>

Omonim ibora hisoblangan, lug'atdagi birinchi ma'nosi “qattiq shovqin qilmoq” bo'lgan “Boshiga ko'tarmoq”<sup>12</sup> iborasini Shoir she'rlarida turli shakllarda kuzatish mumkin.

Yuqoridagi ibora “Rivoyat” she'rida eri tomonidan talabi bajarilmagan, aytgan sovg'asi olib kelinmagan xotin holatini ifodalash uchun o'zgarishsiz qo'llangan:

Birdaniga boshladi-ku xotin g'avg'oni,  
U boshiga ko'tarardi go'yo dunyoni.<sup>13</sup>

Quyida keltirilgan “Echki” she'ridan parchada esa baland bir qoyaga chiqib, qaytib tushishning chorasini topa olmay qolgan echkining holatini ifodalash uchun shu iboraning “boshga ko'tarmoq” varianti qofiya talabi bilan teskari qo'llangan:

Endi madad so'rab ma'ray boshladi,  
Osmon-u falakni ko'tarib boshga.<sup>14</sup>

Iboraning omonem shakli, lug'atdagi ma'nosi- yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq, “Chingiz Aytmatov” she'rida:

Mehr-u sadoqati mustajob bo'lib,  
Adibni boshiga ko'tardi o'zbek.<sup>15</sup>

Tarzida o'zgarishsiz qo'llangan.

Iboraning “Boshga ko'tarmoq” varianti quyidagi parchada o'zgarishsiz qo'llanib, asl oddiy folklorizmni hosil qilgan:

Kimnidir el-u yurt boshga ko'targay,  
Buyuklar ko'targay el-yurtning o'zin.<sup>16</sup>

Quyidagi she'rida esa:

Shukur kilgin, xalqning o'zi ko'targay boshga,  
Poying yerda, shoning esa yetgay quyoshga.<sup>17</sup>

<sup>11</sup> A. Oripov. Quyosh bekatlari. – T.: Sharq, 2010. – B. 43.

<sup>12</sup> O'zbek tili frazeologik lug'ati. Tuzuvchilar: SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O'razova, K. Rixsiyeva. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B. 15.

<sup>13</sup> A. Oripov. Quyosh bekatlari. – T.: Sharq, 2010. – B. 169.

<sup>14</sup> A. Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 2-jild – T.: Adabiyot va san'at, 2001. – B. 236.

<sup>15</sup> A. Oripov. Adolat kuzgusi. – T.: Adolat, 2005. – B. 94.

<sup>16</sup> A. Oripov. Adolat kuzgusi. – T.: Adolat, 2005. – B. 80.

<sup>17</sup> A. Oripov. Tanlangan asarlar. 8-jild – Toshkent: G'afur G'ulom, 2016. – B. 64.

tarzida inversiyaga uchragan.

Xulosa qilib aytganda, donishmand shoir Abdulla Oripov oddiy folklorizm hisoblangan. Xalq iboralarini she'rlariga mahorat bilan singdirib yuborgan. Shoir omonim va ko'p ma'noli iboralarni vazn va qofiya talabi bilan o'zgartirib qo'llab she'rning mazmun va ta'sir kuchini oshirgan va iboralarning turli ma'no qirralarini ham ochib bera olgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ш. Назарова. Огахий ижодига янгича бир назар. ЎзМУ босмахонаси: 2010.
2. Оripов А. Эҳтиёж фарзанди. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988.
3. О'zbek tili frazeologik lug'ati. Tuzuvchilar: SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O'razova, K. Rixsiyeva. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.

Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 2-jild –T.: Adabiyot va san'at, 2001.

4. Oripov A. Адолат кўзгуси. –Т.: Адолат, 2005.
5. Oripov A. Қуёш бекати. – Т.: Шарқ, 2010.
6. Oripov A. Tanlangan asarlar. 8-jild – Тошкент: Фафур Фулом, 2016.

---

# Research Science and Innovation House